

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.R.Asqarov, O.Sh.Abdulloyev, Q.Q.Otaxonov, Z.N.Razzaqov	
Analysis of the content of water-soluble vitamins in the food supplement AS-RAZZOQ	6
S.M.Ikramova, D.N.Shaxidova, H.G'.Qurbanov, D.A.Gafurova	
Nikel ionlarini sorbsiyalash uchun yangi ion almashuvchi materialning ishlatalishi	12
N.M.Qoraboyeva, D.A.Gafurova, B.T.Orziqulov, H.G'.Qurbanov	
Polikompleksonning olinishi va fizik-kimyoviy xossalari.....	18
M.A.Axmadaliyev, N.M.Yakubova, I.R.Xasanboyev	
α,β -To'yinmagan ketonlarni olish.....	25
A.X.Xaydarov, O.M.Nazarov, X.N.Saminov	
Olma o'simligi barglari efir moylarining kimyoviy tarkibini o'rganish.....	30
M.N.Po'latova, S.Y.Xushvaqtov, D.J.Bekchanov,	
Tarkibida amino va karboksil guruh tutgan polikompleksonlarning olinishi va xossalari (sharhiy maqola)	36
D.A.Eshtursunov, A.Inxonova, D.J.Bekchanov, M.G.Muxamediyev	
Magnit xossalni polimer nanokompoziti yordamida farmatsevtika chiqindi suvlaridagi paratsetamolning fotokatalitik degradasiysi	43
Y.S.Fayzullayev, D.J.Bekchanov, M.G.Muxamediyev, M.R.Murtozaqulov, X.U.Usmonova	
Tarkibida amino va fosfon guruh saqlagan yangi avlod ion almashinuvchi materiali olish	53
V.U.Xo'jayev S.S.Omonova	
O'zbekistonda keng tarqalgan <i>Heliotropium</i> turkumiga mansub ba'zi o'simliklarning element tarkibini tadqiq qilish	56
SH.A.Mamajonov, N.B.Odilxo'jazoda, S.S.G'ulomova	
<i>Liridendron tulipifera</i> L. o'simligining alkaloid tarkibini o'rganish	63
D.G'.Urmonov, M.M.Axadjonov	
<i>Limonium otolepis</i> ildiz po'stlog'idagi kondensirlangan tanninlarning miqdoriy va spektroskopik tahlili	66
N.M.Yuldasheva, B.J.Komilov K.A.Eshbakova, SH.A.Sulaymonov, B.D.Mamasulov	
<i>Inula rhizocephala</i> gul qismi efir moyining kimyoviy tarkibi va mikroblarga qarshi faolligi	70
A.M.No'monov, S.R.Mirsalimova, A.B.Abdikamalova, D.A.Ergashev	
Log'on bentonitini boyitish va uni modifikatsiyalab olingan organobentonitlarni skanerlovchi elektron mikroskop yordamida tahlil qilish.....	76
M.Sh.Muxtorova, V.U.Xo'jayev, U.V.Muqimjonova	
<i>Lonicera nummularifolia</i> o'simligi bargi, ildizi va poyasi tarkibidagi aminokislotalar tahlili	83
Z.M.Chalaboyeva, M.J.Jalilov, S.R.Razzoqova, Sh.A.Kadirova, Sh.Sh.Turg'unboyev	
N-(1h-1,2,4-triazol-II) asetamidni rux (II) xlorid bilan kompleks birikmasining sintezi va tadqiqoti ..	88
D.A.Eshtursunov, I.I.Abdujalilov, D.J.Bekchanov, A.T.Xasanov	
Ppe-1/Nio nanozarrachalari orqali asetamiprid (pestitsid)ning fotokatalitik parchalanishi	94
I.R.Askarov, Ch.S.Abdujabborova	
Analysis of the biological activity of the food additive "As lupinus"	100
X.X.Usmonova, M.G.Muxamediev	
AN-31 Anion almashinuvchi materialga Cu(II) ionlari sorbsiyasi.....	104
I.I.Abdujalilov, D.A.Eshtursunov, D.J.Bekchanov, M.G.Muxamediyev	
Metal oksid zarrachalarini saqlagan funksional polimer kompleksining olinishi va uning spektroskopik tahlili	109
I.R.Askarov, M.M.Khojimatov, D.S.Khojimatova	
Methods for determining the acute poisoning and cumulative properties of a natural remedy "As-Sultan"	115
F.X.Bo'riyev, E.M.Ziyadullayev, G.Q.Otamuxamedova, F.Z.Qo'shboqov, O.E.Ziyadullayev	
Atsetilen spirtlarining oksidlanish jarayonlariga katalizatorlar ta'siri	120

BIOLOGIYA

M.A.Masodikova, G.M.Zokirova, I.I.Zokirov

First recorded geographical distribution and biology of *Euproctis chrysorrhoea*
(Lepidoptera: Erebidae) in the Fergana valley, Uzbekistan

**УО'К 541. 64: 678. 745. 547. 235****POLIKOMPLEKSONNING OLINISHI VA FIZIK-KIMYOVİY XOSSALARI****ПОЛУЧЕНИЕ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПОЛИКОМПЛЕКСОНА****OBTAINING AND PHYSICAL-CHEMICAL PROPERTIES OF POLYCOMPLEXONE****Qoraboyeva Nasiba Ma'murjon qizi¹** ¹Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, tayanch doktoranti**Gafurova Dilfuza Anvarovna²** ²Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, k.f.d., professor**Orziqulov Bunyod Toshmirzayevich³** ³Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, PhD**Qurbanov Hakimxon G'olibovich⁴** ⁴Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, PhD**Annotatsiya**

Ushbu maqolada poliakrilonitril asosida yangi poliamfolit tabiatli polikompleksonning olinishi va fizik kimyoviy xossalari o'rjanilgan. Sintez qilingan polikompleksonning ionagen guruhlarini tahlil qilish maqsadida potensiometrik titrlash o'tkazilgan va IQ-spektrlari olingan. Olingen polikompleks bilan Cu²⁺ ionlarining sorbsiyasi o'rganildi va rentgenflurossent usuli yordamida tahlil qilindi.

Аннотация

В данной статье изучено получение и физико-химические свойства нового полиамфолитного поликомплексона на основе полиакрилонитрила. С целью анализа ионогенных групп синтезированного поликомплексона было проведено потенциометрическое титрование и получены ИК-спектры. Изучали сорбцию ионов Cu²⁺ полученным поликомплексоном и анализировали рентгенофлуоресцентным методом.

Abstract

In this article, the preparation and physicochemical properties of a new polyampholytic polycomplexone based on polyacrylonitrile are studied. In order to analyze the ionogenic groups of the synthesized polyampholytic polycomplexone, potentiometric titration was carried out and IR spectra were obtained. The sorption of Cu²⁺ ions by the obtained polycomplexone was studied and analyzed using the X-ray fluorescence method.

Kalit so'zlar: poliakrilonitril, geksametilendiamin, fosfit kislota, polikompleks, statik almashuv sig'imi.

Ключевые слова: полиакрилонитрил, гексаметилендиамин, фосфитовая кислота, поликомплексон, статическая обменная емкость.

Key words: polyacrylonitrile, hexamethylenediamine, phosphitic acid, polycomplex, static exchange capacity.

KIRISH

So'nggi yillarda jahonda va respublikamizda polimer kompozitsion sorbentlar yordamida sanoat korxona suvlarini tozalash va tayyorlash borasida juda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Dunyoda sanoat oqava suvlarini tozalash va chiqindi eritmalarini qayta ishlash uchun turli usullarda neytrallash, og'ir metallar ionlarini zararsizlantirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'naliishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: alyuminiy, temir, shuningdek ularning birikmalari asosida yangi qaytaruvchi reagentlar, tozalash va kerakli komponentlarni ajratib olishning yangi usullarini yaratish, turli metall ionlariga to'yingan sanoat oqava suvlari va chiqindi eritmalarini turli pH muhitlarida tozalay oladigan kompozitsions reagent-qaytaruvchilar yaratish, oqava suv va chiqindi eritmalarini qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish, yangi, samarali, ekologik xavfsiz qaytaruvchi reagentlar yaratish. Respublikamizda sanoat oqava suvlari va chiqindi eritmalarini

KIMYO

tozalashda mahalliy xomashyolar asosida turli xildagi kimyoviy reagentlarni yaratish va ularni qo'llash texnologiyalarini ishlab chiqish borasida ma'lum nazariy va amaliy natijalarga erishildi. Bu borada oqava suvlar va chiqindi eritmalarni zararsizlantirish, ular tarkibidagi metall birikmalarni ajratib olish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni a'lovida ta'kidlash kerak.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda ion almashinuvchi materiallar iqtisodiyotning turli sohalarida keng miqyosda qo'llanilmoxda, shuningdek ularga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Ion almashinuvchi polimer materiallar rangli, siyrak, og'ir va nodir metallarni ajratib olish, kontsentrlashda, shuningdek sanoat suvlarini tayyorlash va tozalashda alovida o'rinn tutadi [1]. Ayniqsa, ion almashinuvchi sorbentlar ko'plab ekologik muammolarni hal qilishda muvaffaqiyatlari qo'llanilib kelinmoqda [2].

Shu munosabat bilan ion almashinuvchi materiallarni sintez qilish va ularni sorbsion xossalarni o'rganish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Adabiylardan ma'lumki, o'zida kompleks xossalarni mujassamlantirgan polimer materiallar asosan turli xil funksional guruh tutgan polimerlarni kimyoviy o'zgartirish usuli bilan olinadi. Bunda polimer materialning dastlabki strukturasi saqlanib qolinadi [3].

Tarkibida azot va fosfor tutgan poliamfoltillarda bir vaqtining o'zida ham ion almashinish, ham xelat hosil bo'lish jarayonlari ham kuzatiladi. Bunday polimer materiallar yuqori sorbsion xossaga ega bo'lib ular yuqori sorbsiya qobiliyati va bir qator og'ir va rangli metallarga nisbatan selektivligi bilan ajralib turadi, bu ham polimer xelatlovchi moddasining polidentat tabiatini bilan, ham amino va fosforlik guruhlar ishtirokida kompleks hosil bo'lishidagi xelat ta'siriga bog'liq [4, 5].

Ionitlar yordamida quyidagi amaliy masalalarni samarali hal qilish mumkin:

- texnologik jarayonlarda suvni tuzsizlantirish, suvni yumshatish yoki to'liq deionlashtirishda;
- rangli va nodir metallar gidrometallurgiyasida ionlar va organik moddalarni konsentrash;
- sanoat ishlab chiqarish gazlarida mavjud bo'lgan kimyoviy faol aralashmalarni tutib qolish;
- tuproqda ion almashinishini yaxshilash va o'simliklarning o'sishi uchun zarur bo'ladigan mikroelementlar va o'g'itlarni kiritish va boshqalar.

Ionalmashinuv jarayonlarining qo'llanilishi uzlusiz ishlaydigan texnologiyalarda, hamda ularni avtomatlashtirish, ionitlar bilan katalizlash yordamida nozik kinetik tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradi. Yadro energetikasi uchun ionitlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Atom elektrostantsiyalari ionitlardan yadro reaktori konturlaridagi suvni tozalash hamda ajraluvchan yoqilg'ilarni keng miqyosida ajratib olish imkonini beradi. Bu radiatsion-kimyoviy texnologiyalarda foydalanish uchun yaroqli bo'lgan katta miqdordagi ionitlarni talab qiladi [6-10].

Sanoat korxonalarining kengayishi va rivojlanishi bilan anion almashinuvchi va kompleks hosil qiluvchi sorbentlarga ehtiyoj ortadi. Ushbu sorbentlarni sintez qilish sanoat korxonalarida ishlatiladigan sorbentlarning funksional guruhlarini o'zgartirishda turli kimyoviy reagentlarni modifikatsiya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi [11-12]. Shuning uchun granulalangan va mahalliy polivinil xomashyolardan ion almashinuvchi, kompleks hosil qiluvchi materiallarni olish jarayoni va fizik kimyoviy xususiyatlarini o'rganish, fizik kimyo va yuqori molekulyar birikmalar kimyosining dolzarb vazifalaridan biridir.

NATIJA VA MUHOKAMA

Kuchli asos xossalni ion almashtiruvchi sorbent olish uchun PAN tolasini geksametilendiamin (GMDA) bilan modifikasiyalash reaksiyasi o'tkazildi va SMA-1 sorbenti sintez qilindi [13].


Keyingi bosqichda SMA-1 anionitiga fosfit kislota bilan ishlov berildi va SMAF-1 poliamfolt tabiatli sorbent sintez qilindi. Adabiylardan ma'lumki, fosfit kislota (o'z tuzilishidan kelib chiqqan holatda) fosfor atomidagi elektron juft tufayli nukleofil hisoblanadi. Birinchi bosqichda hosil bo'lgan polimerda ikkilamchi aminoguruuhlar orqali kimyoviy o'zgarish jarayoni sodir bo'ladi va natijada – PO_3H_2 guruhlari hosil bo'ladi.

Hosil bo'lgan polimer tarkibidagi yangi funksional guruhlarni aniqlash alovida sharoitlarni taqozo etadi va u bir qator qiyinchiliklar tug'diradi, shuning uchun ionalmashinuvchi materiallarni sian guruhini almashinish darajasini tavsiflash uchun statik almashuv sig'imini (SAS) aniqlash usulidan foydalandik. Polimerlarni kimyoviy o'zgartirish jarayonida aylanish darjasini sifatida sintez qilingan sorbentlarning SAS qiymati HCl va NaOH ning 0,1n eritmalari yordamida aniqlandi.

SMAF-1 tolasini fosfit kislota bilan kimyoviy modifikatsiyasining maqbul haroratini aniqlash uchun modifikatsiyalash jarayonining kinetikasini turli haroratlarda o'rganildi.

1-rasmda modifikatsiyalangan tolaning SASiga reaktsiya borish vaqtining davomiyligi, harorat va fosfit kislota kontsentratsiyasi ta'sirini o'rganish natijalari keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki fosfit kislota konsentratsiyasi 60% gacha ortganda sorbentning SASi ham ortib bordi, keyinchalik esa o'zgarmay qoldi.



1-rasm. SMAF-1 sorbenti SAS iga reaksiyaning davomiyligiga va H_3PO_4 kislotasining konsentratsiyasiga bog'liqligi

1-rasmdan SASning maksimal qiymati reaksiya 5-7 soat olib borilganida kuzatilganini va fosfit kislota konsentratsiyasi oshishi bilan SAS oshishini ko'rish mumkin.


Sintez qilingan poliamfolit PAN ni erituvchilarida, organik erituvchilarda, kuchli kislota va asoslarda erimaydi, bu esa polimer modifikatsiyalanish natijasida tikilgan holatga o'tganligidan dalolat beradi. Sintez qilingan polimerning kimyoviy tuzilishini tavsiflash uchun uning IQ-spektri va namunalarini potensiometrik titrlash orqali poliamfolit va suvli muhit orasidagi ion muvozanati tekshirildi.

Sintez qilingan polimerning kimyoviy tuzilishini tavsiflash uchun IQ-spektri olindi va potensiometrik titrlash o'tkazildi. PANning IQ spektrlaridan farqli o'laroq, 2242 sm^{-1} dagi yutilish zonasining intensivligi $-C\equiv N$ ning cho'zilish tebranishlari bilan bog'liq. N guruhi kamayadi, $3000-3600\text{ sm}^{-1}$ oralig'ida $=NH$ va $-NH_2$ guruhlari bilan bog'lanishlarning cho'zilish tebranishlariga mos keladigan yangi yutilish zonasini, $>NH$ guruhlari egilish tebranishlari bilan bog'liq 1565 sm^{-1} va mos keladigan yutilish zonasini 1658 sm^{-1} paydo bo'ladi. $>C=N-$ bog'larining cho'zilgan tebranishlariga.

SMAF-1 poliamfolitining IQ-spektrida yangi 968 , 1099 va 1170 sm^{-1} da intensive yutilish chiziqlari mavjud bo'lib, bu bo'lsa $-P(O)(OH)_2$ guruhlari borligiga yorqin dalildir. 1560 sm^{-1} dagi yutilish chizig'i $=N-N$ bog'larining deformatsion tebranishlariga tegishli, $2800-2850\text{ sm}^{-1}$ lardagi yutilishlarni bo'lsa aminometilenfosfonat-guruhlari borligiga isbotdir. SMAF-1 poliamfolitini potensiometrik titrlash asosida SAS qiymatlari topildi.

SMAF-1 poliamfolitini potensiometrik titrlash asosida SAS qiymatlari topildi. Kimyoviy modifikatsya qilib olingan poliamfolitning ionogen guruhlarini tavsiflash maqsadida potensiometrik titrlash o'tkazildi. Titrlashni alohida tortimlar usulida statik sharoitda amalga oshirildi va bunda $[H^+]$ va $[OH^-]$ ionlarining konsentratsiyasi poliamfolit tortimlari ustiga har hil miqdordagi $0,1\text{n}$ HCl va NaOH larni $0,1\text{n}$ NaCl dagi eritmasini qo'yish yo'li bilan o'zgartirildi. Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, anionalmashuv titrlashning egor chizig'i $[H^+]=1,7\text{ mg-ekv/g}$ da keskin sakragan. Ushbu ma'lumotlar anionit tarkibida ikki xil asoslikka ega funksional guruhlarning mavjudligi haqida ma'lumot beradi. Kation almashuv titrlash natijalaridan $[OH^-]=2,7\text{ mg-ekv/g}$ da maksimum kuzatilyapti. Bu sorbent tarkibida kislotali $-P(O)(OH)_2$ guruhlari borligini isbotlaydi.

KIMYO



2-rasm. SMAF-1 poliamfolitini HCl (a) va NaOH (b) eritmasi bilan potensiometrik titrlash differensial egrisi

SMAF-1 sorbentiga mis (II) ionlarini yutilish jarayonini statik sharoitlarda pH=10 da olib borildi. Sorbiyalanuvchi ion sifatida mis ammiakat $[Cu(NH_3)_4]^{2+}$ ionidan foydalanildi, negaki, ushbu kation suvli eritmada jadal ko'k rangga ega bo'lib va 590 nm to'lqin uzunligida yutilishni boshlaydi. 0,4g sorbent namunasi $[Cu(NH_3)_4]SO_4$ ning turli konsentrasiyadagi eritmasiga solindi. Sorbsiyadan oldingi va keyingi $[Cu(NH_3)_4]^{2+}$ ionlarining konsentrasiyasi spektrofotometrik usul bilan aniqlandi. Mis (II) ionlari konsentrasiyasi 590 nm to'lqin uzunligida muhit optik zichlikni $[Cu(NH_3)_4]^{2+}$ ionlari konsentrasiyasiga bog'liqlik kalibrovka grafigidan topildi. Solishtirma sorbsiya qiymati $\Delta X/m$ quyidagi formuladan hisoblandi:

$$\frac{\Delta X}{m} = \frac{(C_0 - C_\tau) \cdot V}{M \cdot m},$$


ΔX – yutilgan ionlar miqdori mol.

m - sorbent massasi, g.

S_0 va S_τ - eritmadiagi ionlarning sorbsiyadan oldingi va keyingi konsentrasiyasi , g/l.

V - eritma hajmi, l.

M – ionlarning molekulyar massasi, g/mol.




2-rasm. SMAF-1 ionalmashinuvchi sorbentga $[Cu(NH_3)_4]^{2+}$ ionlarining yutilish kinetikasi
 $T=303$ (1), 313 (2), 323 (3)K, $C=1$ g/l.

$[Cu(NH_3)_4]^{2+}$ ionlarini SMAF-1 sorbentiga yutilish jarayoniga harorat, dastlabki eritmadiagi $[Cu(NH_3)_4]^{2+}$ ionlari konsentrasiyasi va sorbsiyalanish vaqt davomiyligi ta'siri o'rganildi. Haroratni va boshlang'ich eritmada $[Cu(NH_3)_4]^{2+}$ ionlari konsentrasiyasi ortishi sorbent tomonidan ionlarni yutilishini ortishiga olib keladi. Bu esa sorbsiya jarayoni kimyoviy bog'lanish hisobiga sodir bo'lishi bilan borishidan darak beradi, ya'ni xemosorbsiyalanish kuzatiladi.


2 - rasmda SMAF-1 sorbentiga $[Cu(NH_3)_4]^{2+}$ ionlarining sorbsiyasi kinetik egri keltirilgan. Grafikdan ko'rindiki, sorbentning boshlang'ich bosqichlarda to'yinishi tez kechadi, keyin jarayon sekinlashadi. Kinetika sorbsiyasi 303, 313, 323 K haroratda o'rganildi.

Keyin $[Cu(NH_3)_4]^{2+}$ ionlarini SMAF-1sorbentiga yutilishi statik sharoitda, sorbiyalanuvchi boshlang'ich eritmadi ($[Cu(NH_3)_4]^{2+}$) ionning konsentrasiyasiga bog'liq holda o'rganildi. Buning uchun 0,4 g SMAF-1 tola namunasi turli konsentrasiyadagi mis sulfatning ammiakdagagi eritmasiga solindi. 90 daqiqa davomida eritmadi ($[Cu(NH_3)_4]^{2+}$ ionlari miqdori aniqlab borildi).


Olingen ma'lumotlar asosida sorbsiya izotermasi tuzildi. 3-rasmda turli haroratlarda SMAF-1 sorbentiga $[Cu(NH_3)_4]^{2+}$ ionlari sorbsiyasining izotermasi keltirilgan. Rasmdan ko'rilib turibdiki, haroratni va boshlang'ich eritmada $[Cu(NH_3)_4]^{2+}$ ionlari konsentrasiyasi ortishi sorbent tomonidan ionlarni yutilishini ortishiga olib keladi. Bu esa sorbsiya jarayoni kimyoviy bog'lanish hisobiga sodir bo'lishi bilan borishidan darak beradi, ya'ni xemosorbsiyalanish kuzatiladi.



3-rasm. SMAF-1 ionalmashinuvchi tolaga turli xaroratlarda $Cu(NH_3)_4]^{2+}$ ionlarining yutilish izotermasi. T=303 (1), 313 (2), 323 (3)K



4- rasm. PAN asosida olingen poliamfolitga ishqoriy muhitda mis (II) ini sorbsiyasining rentgenfluorescent analizi.



5-rasm. PAN asosida olingan poliamfolitga kislotali muhitda mis (II) ioni sorbsiyasining rentgenfluorescent analizi.

Olingan natijalardan shuni ko'rishimiz mumkinki, PAN asosida olingan poliamfolitga Cu^{2+} ionining almashinish jarayoniga muhit muhim omil hisoblanadi. Bunda kislotali muhitda Cu^{2+} ionining yutilgan ulushi 4,27% ni, ishqoriy muhitda esa 5,40% ni tashkil etgan. Bunga sabab muhit kislotali bo'lganda Cu^{2+} ionining almashinish jarayonida $-\text{PO}_3\text{H}_2$ guruhiqa nisbatan bir mucha faol bo'lgan $-\text{NH}$ funksional guruhi bilan kordinatsion bog' hosil qilgan holda yutilmoqda. Ishqoriy muhitda esa faol holatdagi $-\text{PO}_3\text{H}_2$ funksional guruhi bilan Cu^{2+} ioni o'zaro ion bog', $-\text{NH}$ funksional guruhi bilan kordinatsion bog' yordamida birmuncha barqaror kompleks birikma hosil qilishini kuzatish mumkin.

XULOSA

Poliakrilonitril asosida yangi turdag'i poliamfolit tabiatli polikompleks sintez qilindi. Olingan polikompleksning IQ-spektri olinib taxlit qilindi, ionogen guruhlarini tavsiflash uchun potensiometrik tirlash o'tkazildi. Sintez qilingan poliamfolitlarga sun'iy eritmalardan mis (II) ionlarini yutilishi kinetikasi va termodinamik funktsiyalar o'zgarishini aniqlash natijasida sorbsiya kimyoviy jarayon hisobiga borishi ko'rsatildi. Poliamfolitga mis (II) ionlari bilan sorbsiyasi ishqoriy muhitda ion va koordinatsion bog'lanish, kislotali muhitda esa koordinatsion bog'lar hisobiga borishi bilan izohlandi. SMAF-1 poliamfoliti texnologik eritmalardan mis (II) ionlarini ajratib olish uchun tavsiya etish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Youssef El Ouardi, Sami Virolainen et al. "The recent progress of ion exchange for the separation of rare earths from secondary resources—A review" *Hydrometallurgy* 218 (2023): 106047.
2. SenGupta, Arup K. *Ion exchange in environmental processes: Fundamentals, applications and sustainable technology*. John Wiley & Sons, 2017.
3. Peponi, Laura, et al. "Processing of nanostructured polymers and advanced polymeric based nanocomposites." *Materials Science and Engineering: R: Reports* 85 (2014): 1-46.
4. Orzikulov, B., Gafurova, D., Shakhidova, D., Makhkamov, M., & Khudoiberdiyev, I. "Kinetic Models of Sorption of Copper (II) Ions on Ionite Based on Polyacrylonitrile." (2023).
5. Qurbonov H., Rustamov M., Gafurova D., Toshpulatova M., & Temirov N. "Polyacrylonitrile-based ion-exchange material synthesis and combustion properties investigation" *E3S Web of Conferences*. Vol. 458. EDP Sciences, 2023.
6. Inamuddin M.L. *Ion Exchange Technology I. // Theory and Materials.* - New York – London: Springer Dordrecht Heidelberg, 2012. - 560 p.
7. De Araujo, L.G. Reaction of ion exchange resins with fenton's reagent / L.G. De Araujo, J.T. Marumo //Environments. – 2018. – Vol.5. – Iss. 11. – No. 123.
8. Wang, J. Treatment and disposal of spent radioactive ion-exchange resins produced in the nuclear industry / J. Wang, Z. Wan // *Progress in Nuclear Energy*. – 2015. – Vol. 78. – P. 47-55.
9. Li, J.F. Advances in cement solidification technology for waste radioactive ion exchange resins: a review / J.F. Li, J.L. Wang // *Journal of Hazardous Material*. – 2006. – Vol. 135. – No. 1-3. – P. 443-448.
10. Cheng, T.H. Kinetic study and optimization of electro-Fenton process for dissolution and mineralization of ion exchange resins / T.H. Cheng, C.P. Huang, Y.H. Huang, Y.J. Shih // *Chemical Engineering Journal*. – 2017. – Vol. 308. – P. 954-962.

11. Гафурова Д. А, Хакимжонов Б.Ш, Мухамедиев М.Г, Мусаев У.Н. Химическая модификация нитрона гексаметилендианмином // Узбекский химический журнал. 2000, №1, С.54-57.
12. Гафурова, Д. Физико-химические особенности образования и свойств анионитов, поликомплексонов на основе поликарбонитрилного волокна / Д. Гафурова. – Каталог авторефератов. – 2023. – № 1. – С. 1-70.
13. Rustamov, M.K., Gafurova, D.A., Karimov, M.M. et al. Application of ion-exchange materials with high specific surface area for solving environmental problems. Russ J Gen Chem 84, 2545–2551 (2014).